

## Oilada estetik tarbiya

Dilshoda Baxtiyor qizi Kamolova  
Dilnoza Sherzod qizi Esanboyeva

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

**Annotatsiya:** Bu maqolada yosh avlod uchun estetik tarbiyaning naqadar ahamiyatli ekanligi to'g'risida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** estetika, go'zallik, go'zallik kategoriyasi, estetik tarbiya, san'at, sport

## Aesthetic upbringing in the family

Dilshoda Bakhtiyor kizi Kamalova

Dilnoza Sherzod kizi Esanboyeva

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after

Alisher Navoi

**Abstract:** This article discusses the importance of aesthetic education for the young generation.

**Keywords:** aesthetics, beauty, category of beauty, aesthetic education, art, sport

Estetika: (yun-his qiluvchi, hissiy tarbiyaga doir) nemischa: - ("his", "tuyg'u") olamning hissiy qabul qilinishini tadqiq etuvchi fandir. Estetika san'at, madaniyat va tabiatning subyektiv qabul qilinishini o'rghanadi. Estetika falsafaning aksilogiya sohasiga kiradi. "Estetika" terminini nemis faylasufi A.Baumgarten (1714-1762) ilmiy muomalaga kiritgan. Estetikaning sinonimi sifatida go'zallik falsafasi, san'at falsafasi, badiiy ijod falsafasi iboralari qo'llanib keligan. Keyingi paytlarda nafoyeatshunoslik yoki nafosat falsafasi atamalari ham Estetikani anglatadigan bo'ldi. Estetika o'z ichiga san'at Estetikasi, tabiat Estetikasi, texnika Estetikasi, dizayn, sport Estetikasi, turmush Estetikasi, atrof muhitni go'zallashtirish va boshqalar sohalarni qamrab oladi.

Estetika asli ichki va tashqi go'zallik haqidagi fan. Unda o'quvchilar go'zallik kategoriyalarini o'rghanadilar. Bunda ularga falsafa, dizayn, sport kabi yo'naliishlar amaliy yordam beradi.

Estetik tarbiyaning asosiy tushunchalaridan biri go'zallik kategoriyasidir. Uning m'a'nosini talaba-yoshlarga tushuntirish ham mazkur tarbiyaning hayotiyligini ta'minlashga katta yordam beradi. Bu kategoriyalarga kishining qalb go'zalligi, kishining tashqi go'zalligi va go'zal xulqini misol qilib keltirish mumkin. Go'zallik -

bu bamisoli daraxt, yaprog'i - axloq, ildizi - ichki dunyo, mevusi-yaxshi fazilat. Xullas, odam bolasidagi go'zallik - tabiat ato qilgan husn-jamolidan tashqari, yana eng yaxshi xulq-atvorni, insondagi eng yaxshi fazilatlarni o'z ichiga olgan odamiylikdan iborat (Mirzakalon Ismoiliy). Bu fikrga qo'shilmasdan ilojimiz yo'q. mana shu fikrning o'zi insonda estetika qanday darajada bo'lishi kerakligini yaqqol ko'rsatib turibdi. Demak estetik tarbiya faqatgina botiniy yoki zohiriylar tarbiyatdangina iborat bo'libgina qolmay, balki, ularning har ikkalasini insonda shakllanishiga ko'maklashuvchi ilmlar majmuasidir. Yoshlarni estetik ruhda tarbiyalash bugungi kunda ancha murakkab jarayon. Bugungi hilma-hil fikrlar hukmron davda yoshlarga estetik tarbiya berish ancha mushkul. Chunki, go'zallik deganda har bir kishining o'z dunyoqarashidan kelib chiqqan holda ma'lum tushunchasi mavjud. Bu tushuncha, albatta, uning yon atrofidagilarining fikri bilan ham shakllangan. Shuning uchun ularga asl go'zallik, go'zal fikr va go'zal xulq qanday bo'lishi kerakligini o'rgatish qiyin bo'lishi mumkin.

Bu jarayonda o'quvchi qolipga tushib qolmasligi zarur. Bu ko'p qirrali jarayon bo'lib, barchanining o'z ichki meni mavjud. Shu tomonlarni hisobga olgan holda estetik tarbiya ularni bir xil qilib qo'ymasligi zarur.

Estetik tarbiya - jamiyatda ma'naviy muhitni paydo qilishga ko'mak beruvchi muhim unsur bo'lib, u inson didini shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi hamda ana shu orqali insonni jamiyat munosabatlariga yaqinlashtiruvchi kuchdir.

Har bir insonda barmoq har-xil bo'lganidek did ham turfa bo'ladi. Barchanining o'z didi bor. Estetika esa buni shakllantirish va rivojlantirishga yordam beradi. Shaxs jamiyatda yashr ekan uning hayoti tartibli ba chiroyli bo'lishi kerak. Har bir harakatda estetika mavjud. Shuning uchun bu ilmlar uning hayoti davomida as qotishi aniq.

Estetik tarbiya - tarbiyaning muhim sohasi. Bugungi kunda jamiyatimizda inson faoliyatini boshqarib borishdan ko'ra, ushbu jarayonni insonning o'zi tashkil etishi kerakligi bot-bot uqtirilmoqda. Bu jarayonda san'at mohiyatan shaxsning histuyg'ulariga ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan muhim vosita sifatida insonni doimo o'ziga jalb etib kelgan. San'at insonning ehtiroslar va tuyg'ular olamiga singib borib ularni yig'latadi, kuldiradi, o'ylashga majbur qiladi. Shuning uchun bo'lsa kerak san'at barcha davrlarda insonga hamroh bo'lib kelgan.

San'at har doim o'zining ergashtiruvchi kuchi bilan ham e'tiborga sazovor bo'lib kelgan. Shuning uchun ham uning tarbiyaning ushbu turida o'rni beqiyos. Haqiqiy san'at egalari o'zlarining yurish-turishlarida va harakatlarida albatta estetikaga har doim ahamiyat beradilar. Shunday ekan ular bu bilan boshqa ko'plab insonlarga na'muna bo'la oladilar. Shuning uchun ham san'at namunalaridan bu borada foydalanish ancha foydali bo'lishi aniq.

Sport borasida ham aytib o'tish joiz deb bilamiz. Inson hayotida sog'lom bo'lishi uchun ham, tashqi go'zallik uchun ham sportning ahamiyati beqiyosdir.

Estetik go'zallik insonda to'laqonli namoyon bo'lishi uchun ham sportning bu boradagi o'rni beqiyos. Sport bilan shug'ullangan inson nafaqat chiroyli, chidamli, baquvvat va sog'lom bo'ladi. Mukammal avlod o'stirishni istovchi har bir jamiyat sportga alohida e'tibor qaratadi. Buning ahamiyati qat darajada ekanligini ular yaxshi tushunishadi. Manan va jismonan sog'lom avlod har bir yurt tayanchidir. Shunday ekan ularni estetikaning ushbu turi bilan ham yaxshi tanishtirish va bu borada o'quvchilarga amaliy yordam berish zarur.

Sport musobaqalari tashkil etilar ekan, undagi go'zallik sportchilarning individual mahorati hisobiga go'zallahadi lekin uning axloqiy yoki psixologik holati mukammal bo'lmasa, bu tomoshabinlarga ajib go'zallik hissini idrok etishda narozilik holatini keltirib chiqaradi. Bu o'rinda endi axloqiy tarbiya ham muhim o'ringa chiqadi. Sport estetik tarbiyadagi miqyosli va muhim roli shundaki, u odamlarning histuyg'ulariga, hissiyotlari esa aqliga ta'sir o'tkazadi, bunday ta'sir oqibatida idrok etuvchida ruhiy ezilishlar vujudga keladi. San'at asarini muntazam idrok etish oila-yu ishxona muammolari, turmush chigalliklari, yetishmovchiliklar va boshqa ostida ko'milib yotgan qalbdagi toza tuyg'ularning ochilishiga olib keladi.

Shunisi bilan ham u juda ahamiyatlidir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, estetik tarbiya juda zarur va muhimdir. Hayotga tayyor bo'lishda yosh avlod tarbiyasida uning o'rni beqiyosdir. Har bir ta'lim muassasida bu borada amalaga oshirilayotgan ishlar amaliy ahamiyatga ega va bu borada yana ko'plab ishlar olib borilishi zarur.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. YOSH SPORTCHILARDA ESTETIK TARBIYANI RIVOJLANTIRISH OMILLARI Umid Kadirbayevich Burliev Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies (CARJIS) ISSN (online): 2181-2454 Volume 2 | Issue 3 | March, 2022 | SJIFactor: 5,965 | UIF: 7,6 | Google Scholar |
2. ESTETIK TARBIYA. MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYA Sug'diyona Mashrabova SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 3 | ISSUE 4 | 2022 ISSN: 2181-1601 Scientific Journal Impact Factor (SJIF 2022=5.016)
3. Ҳайдаров, С. А. (2023). ТАРИХ ДАРСЛАРИДА САНЪАТ АСАРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ УСУЛЛАРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(1/2), 92-96.
4. Аслонов И. (2022) «Бобурнома» бадиий – психологик тасвир муаммоси обьекти сифатида. O'zMU xabarlari. Toshkent – 2022. №1/5.
5. Aslonov Ilhom Nizomovich. (2022) The Problem of Artistic - Psychological Image in Boburnoma. Eurasian Scientific Herald. Volume 7| April, 2022. ISSN: 2795-7365.

6. Aslonov Ilhom Nizomovich. (2022) Appearance of Zahiriddin Muhammad Bobur in "Boburnoma"Central Asian journal of theoretical and applied sciences Volume: 03 Issue: 06 | Jun 2022 ISSN: 2660-5317.
7. Sattorov V.N (2023). Umumiy pedagogika fani taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari. ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES,3, 710-719. (2023)
8. Sattorov V.N (2023). Umumiy pedagogika fanini o'qitishda inovatsialar. ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES,3, 734-745 (2023).
9. Sattorov V.N (2022). Methods of shaping the culture of the teacher. Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning. vol 3 no.02. 36-41 (2022). ISSN (online): 2776-0995
10. Sattorov V.N (2023). Indicators of Pedagogical Competence and its Effectiveness. International Journal of Inclusive and Sustainable Education. vol 2 no.02. 86-88. (2023). ISSN(e): 2833-5414
11. Arapbaeva Damegul Kurbanovna, Amirova Bibisara Aubakirovna. Personal Psychological Adaptation and its Characteristics. INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION. VOL. 2. NO 2. 2023. -P. 68-70.
12. Jobborova Gulnoza Kadamovna. (2022). Formation of Ecological Culture of Primary School Students. Eurasian Scientific Herald, 7, 240–242. Retrieved from
13. Jobborova Gulnoza Kadamovna. PEDAGOGIK ODOB-AXLOQ VA TALABA XULQ – MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 3(1/2), Jan., 2023. 97-105.
14. ESTETIK TARBIYA. MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYA Sug'diyona Mashrabova SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 3 | ISSUE 4 | 2022 ISSN: 2181-1601.
15. O'QUVCHILARNING ESTETIK TARBIYASINI RIVOJLANTIRISH, Guljahon G'ulomovna Mahmudova, Sitora Qobiljon qizi Jumayeva, CENTRAL ASIAN ACADEMIC JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCH ISSN: 2181-2489 VOLUME 2 | ISSUE 10 | 2022
16. OILADA ESTETIK TARBIYA, Surayyo Rustamovna Mamatova SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 3 | ISSUE 4 | 2022 ISSN: 2181-1601.